

SUMMATIV VA FORMATIV BAHOLASH TIZIMINING O'ZIGA HOS JIHLATLARI

Kenjayeva Maftuna

*Andijon davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni baholash jarayonda summative va formative baholash tizimining samarali tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: baholash, jamiyat, ilm, maktab, ko'nikma, summativ, formativ.

Barchamizga ma'lumki hozirgi tez rivojlanib borayotgan davrda, ilm va unga bo'lgan e'tibor juda ham yuqori darajada bo'lib, ta'limning har jabhasida bu o'z aksini topmoqda. Xususan, o'qitishdan maqsad ham, ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi xosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va faoliyatni rivojlantirib uni amaliy hayot tarzida oqilona foydalangan holda, jamiyatga kerakli insonlar bo'lib yetishishdan iborat. Boshqacha aytganda – o'quv maqsadlari ta'lim jarayoni oxirida kutilayotgan natija ham hisoblanadi. Shuningdek, o'qitish davomida, ularni baholash va rag'batlantirish ham o'z navbatida ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va kamchiliklari ustida ishlashlari uchun katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning bilimni baholash - ta'lim jarayonining muhim bir qismi bo'lib, u o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlash, rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi. Hozirda tez fursatda ta'lim tizimiga kirib ulgurgan summativ va formativ baholash usuli hisoblanadi. Summativ va formativ baholash ta'lim jarayonida har biri o'ziga xos jihatlari va foydalari bilan ajralib turadigan ikki asosiy baholash usulidir. Ularning farqlari, maqsadlari va foydalari quyidagi tarzda ko'rsatilishi mumkin:

Formativ baholash

1. Davriy baholash: Formativ baholash jarayon davomida davomiy ravishda amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilarning o'qish jarayonidagi natijalarini baholash.

2. Asosiy maqsad: O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga yordam berish va ta'limni yaxshilash.

3. Qayta aloqa: O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi ikki tomonlama feedback (qayta aloqa) jarayoni, bu esa o'quvchilarning o'z bilimlarini yaxshilashiga yordam beradi.

Xususan, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'qish jarayonida o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'qituvchilarga o'quvchilarning qiyinchiliklarini

aniqlash va ularga yordam berish imkonini beradi va ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Summativ baholash.

1. Yakuni baholash: Summativ baholash, odatda, o'quv bosqichining oxirida yoki muayyan bir davrning yakunida amalga oshiriladi.

2. Asosiy maqsad: O'quvchilarning o'quv dasturidagi maqsadlariga yetganligini baholash va natijalarni baholash.

3. Standartlashtirilgan baho: Odatda, summativ baholash natijalari asosida o'quvchilarga baholar beriladi (masalan, imtihonlar, testlar).

Bu esa, ta'limning umumiy samaradorligini baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning erishgan natijalari haqida aniq ma'lumotlar beradi va o'qituvchilarga o'z pedagogik yondashuvlarini yaxshilash imkonini ham beradi.

Xulosa qilib aytadigon bo'lsak, har ikkala baholash usuli ham ta'lim jarayonining muhim qismlaridir. Baholash ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi. Baholash – o'lchash jarayoni: bunda bilim, ko'nikma, kompetensiyalar bir vaqtda o'lchanadi. Formativ baholash o'quvchilarning rivojlanishini kutish uchun zarur, summativ baholash esa ularning o'quv dasturiga qanday darajada javob berayotganini ko'rsatadi. Birgalikda foydalanilganda, bu baholash turlarining har biri ta'lim jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi va o'quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.

2. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

3. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

4. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.

5. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

6. O`rinova, N.M., va Yo`ldosheva, D.A.Q.(2021). Oliy o`quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol talim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo`llari.

7. Tuychieva, I.I. (2018). Mechanisms Ensuring Children`s Thought Activity Development at Preschool Education Process. Eastern European Scientific Journal.

8. Abdullayeva, N.A.(2022). Ilmiy tadqiqot olib boorish kompetentligi- bo`lajak o`qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida.

